
KASB BAYRAMI ARAFASIDA FARG'ONALIK QATOR TIBBIYOT SOHASI XODIMLARI ORDEN VA MEDALLAR BILAN MUKOFOTLANDILAR

"Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Prezident farmoni e'lon qilindi.

Mamlakatimizda tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, aholi salomatligini ishonchli muhofaza qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini mustahkamlash borasidagi ko'p yillik samarali mehnati, sog'liqni saqlash tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, zamonaviy davolash usullarini amaliyotga keng tadbiq etish, sohaga doir dasturlar ijrosini muvaffaqiyatli amalga oshirishga qo'shgan munosib hissasi, yuqori salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun tibbiyot sohasi xodimlaridan bir guruhi, shu jumladan, Farg'ona viloyati vakillari ham, orden va medallar bilan mukofotlandilar.

II darajali «Salomatlik» ordeni bilan

Alixojayeva Nazorat Aripxodjayevna - Furqat tumanidagi «Ingichka» oilaviy shifokorlik punkti oilaviy shifokori;

«Do'stlik» ordeni bilan

Iskandarova Sayyoraxon Mutalibovna - Quvasoy shahar tibbiyot birlashmasining qon quyish bo'limi hamshirasi;

«Sog'lom turmush» medali bilan

Ashurova Manzuraxon Djaloldinovna - Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ovqatlanish, bolalar va o'smirlar gigiyenasi kafedrasи mudiri;

«Shuhrat» medali bilan

Muydinov Javlonbek Ibroximovich - Farg'ona viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining kardioxirurgiya bo'limi mudiri;

Abdusamatov Shovkat Abdumuxtorovich - Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasining tez tibbiy yordam bo'limi haydovchisi.

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2022-11-12 09:23:12